

Kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar – iyun


E'tibor bering!

- 2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 74,1 foizni tashkil etdi.
- 4806 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 9,7 birlikni tashkil qiladi.

2019 yilning yanvar-iyunida 4806 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 120,3 foizga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 34,9 foizni, sanoat tarmog'ida 25,6 foizni, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 10,8 foizni, qurilish tarmog'ida 9,3 foizni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 7,6 foizni, tashish va saqlashda 2,4 foizni tashkil qilmoqda.

2019 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (foizda) (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




**Shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik
korxonalar va mikrofirmalar (birlikda)**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	2018 y. yanvar-iyun	2019 y. yanvar-iyun	Farqi (+-)
Samarqand viloyati	2181	4806	2625
Samarqand shahar	684	1503	819
Kattaqo'rg'on shahar	118	121	3
Oqdaryo tuman	84	188	104
Bulung'ur tuman	69	171	102
Jomboy tuman	96	216	120
Ishtixon tuman	97	306	209
Kattaqo'rg'on tuman	110	196	86
Qo'shrabot tuman	56	101	45
Narpay tuman	48	113	65
Payariq tuman	122	264	142
Pastdarg'om tuman	146	396	250
Paxtachi tuman	35	116	81
Samarqand tuman	204	467	263
Nurobod tuman	65	125	60
Urgut tuman	157	313	156
Tayloq tuman	90	210	120

2019 yilning yanvar-iyunida kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'pi Samarqand shahrida (1503 ta), Samarqand (467 ta), Pastdarg'om (396 ta), Urgut (313 ta), Ishtixon (306 ta) va Payariq (264 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019 yil yanvar-iyun holatiga yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi (foizda)**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




2019 yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Samarqand shahrida – 33,3 %, Samarqand – 9,7 %, Pastdarg'om – 8,2 %, Urgut – 6,5 %, Ishtixon – 6,4 % va Payariq – 5,5 % tumanlarida tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar (birlikda)**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	2018 y. yanvar-iyun	2019 y. yanvar-iyun	Farqi (+/-)
Jami	2181	4806	2625
Qishliq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	324	366	42
Sanoat	506	1228	722
Qurilish	305	445	140
Savdo	488	1677	1189
Tashish va saqlash	53	115	62
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	244	520	276
Axborot va aloqa	38	101	63
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	65	59	-6
Boshqa turdagi xizmatlar	158	295	137

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar (birlikda)**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda - 1677 ta, sanoatda – 1228 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 520 ta, qurilish – 445 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 366 ta, tashish va saqlashda - 115 ta, axborot va aloqada - 101 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda - 59 ta hamda boshqa turdagi xizmatlarda - 295 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan shahar va tumanlar (birlikda)
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	2018 y. yanvar-iyun	2019 y. yanvar-iyun	Farqi (+/-)
Samarqand viloyati	2181	4806	2625
Samarqand shahar	684	1503	819
Oqdaryo tuman	84	188	104
Bulung'ur tuman	69	171	102
Jomboy tuman	96	216	120
Ishtixon tuman	97	306	209
Kattaqo'rg'on tuman	110	196	86
Payariq tuman	122	264	142
Pastdarg'om tuman	146	396	250
Samarqand tuman	204	467	263
Urgut tuman	157	313	156
Tayloq tuman	90	210	120


2019 yil yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Samarqand shahrida – 819 ta, Samarqand - 263 ta, Pastdarg'om – 250 ta, Ishtixon - 209 ta, Urgut – 156 ta, Payariq – 142 ta, Tayloq – 120 ta, Jomboy – 120 ta, Oqdaryo – 104 ta, Bulung'ur – 102 ta va Kattaqo'rg'on – 86 ta tumanlarida tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar (birlikda)
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatgich Samarqand shahrida (14,5 birlikda), Payariq (11,9 birlikda), Bulung'ur (11,0 birlikda), Jomboy (10,6 birlikda), Samarqand (9,8 birlikda), Ishtixon (9,4 birlikda), Qo'shrabot (9,2 birlikda) va Nurobod (9,1 birlikda) tumanlarida o'rtacha ko'rsatgich 8,8-6,2 birlik oralig'ida Oqdaryo, Kattaqo'rg'on shahri, Tayloq, Pastdarg'om, Urgut, Kattaqo'rg'on, Paxtachi tumanlarida aniqlandi. Narpay tumanlarida 5,3 birlikda ushbu ko'rsatgich past bo'lib qolmoqda.

2019 yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda).




Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
2019 yil yanvar-iyun holatiga.
(har 1000 aholiga, birlikda)



Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2017 yilning yanvar-iyunida 10,4 birlikni, 2018 yilda 10,6 birlikni tashkil etgan bo'lib, 2019 yilda bu ko'rsatkich 9,7 birlikka yetdi. Bu esa, 2017 yil ko'rsatkichidan 0,2 birlikda yuqori bolib, 2018 yil ko'rsatkichidan 0,9 birlikka pasaygan.


2019 yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlarida
kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi (foizda)



2019 yilning yanvar-iyunida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning ulushi sanoatda - 52,5 foizni, qurilishda - 98,7 foizni, investitsiyada - 67,4 foizni, savdoda - 87,2 foizni, eksportda - 77,8 foizni, importda - 69,4 foizni va xizmatlar sohasida - 70,8 foizni tashkil qilmoqda.

2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi

YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 74,1 foizi kichik tadbirkorlik sub'yektlari (biznes) hissasiga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich 2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan 4,6 bandga kamaygan.



2019 yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi (foizda)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Samarqand viloyati	52,5	98,7	70,8	67,4
Samarqand sh.	41,1	96,3	59,4	73,4
Kattaqo'rg'on sh.	22,0	100,0	95,9	62,5
Bulung'ur	87,8	100,0	97,0	68,2
Jomboy	19,5	100,0	78,6	75,0
Ishtixon	59,7	100,0	97,0	83,1
Kattaqo'rg'on	48,9	100,0	96,4	92,7
Narpay	21,9	100,0	95,0	95,7
Nurobod	100,0	100,0	98,6	56,3
Oqdaryo	92,7	100,0	98,0	98,4
Payariq	47,7	100,0	95,2	70,3
Pastdarg'om	76,0	100,0	74,9	97,8
Paxtachi	60,1	100,0	94,3	82,9
Samarqand	99,7	97,4	91,1	56,3
Tayloq	90,3	100,0	87,2	30,1
Urgut	97,5	100,0	93,8	44,7
Qo'shrabot	100,0	100,0	97,1	59,5

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushi Nurobod va Qo'shrabot tumanlarida 100,0 foizni;

– qurilishda Urgut, Jomboy, Pastdarg'om va Nurobod tumanlarida 100,0 foizni tashkil etdi.

– xizmatlar sohasida Nurobod 98,6 foizni, Oqdaryo 98,0 foizni, Qo'shrabot 97,1 foizni, Bulung'ur 97,0 foizni, Ishtixon 97,0 foizni va Kattaqo'rg'on 96,4 foizni tumanlarida qayd etildi.

2019 yilning yanvar–iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3745,8 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 52,5 foizi);



3111,4 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 67,4 foizi) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 130,1 foizni tashkil qildi;



2254,8 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 98,7 foizi) bajarildi va 2018 yilning yanvar– iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 144,2 foizni tashkil qildi;



3854,9 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 70,8 foizi) 2018 yilning yanvar–iyuniga nisbatan oʻsish surʻati 104,8 foizni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 87,2 foizi yoki 5954,0 mlrd. soʻmi (oʻsish surʻati 102,8 foizni) shu sohaga toʻgʻri keldi;


– 141,9 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 77,8 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan 47,3 mln. AQSh dollariga yoki 50,0 foizga koʻp;




- avtomobil transporti yuk aylanmasi 6,8 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 96,2 foizi) ko`payishi ta`minlandi;
- yo`lovchi aylanmasining esa 2,4 foizga (viloyat jami yo`lovchi aylanmasining 97,6 foizi) ko`payishi ta`minlandi;



Kichik tadbirkorlikning sohalar kesimida ulushi (umumiy hajmiga nisbatan foizda)




2019 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (1332,8 mlrd. so'm), Samarqand tumani (578,9 mlrd. so'm), Urgut tumani (576,2 mlrd. so'm) va Bulung'ur tumani (130,6 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. Narpay tumani (30,1 mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on shahri (29,3 mlrd. so'm) va Qo'shrabot tumanida (16,3 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2019 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (1233,9 mlrd. so'm), Urgut tumani (823,0 mlrd. so'm), Pastdarg'om tumani (489,6 mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on shahri (394,6 mlrd. so'm), Bullung'ur tumani (391,2 mlrd. so'm) va Ishtixon tumani (292,0 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.



2019 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



2019 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Samarqand shahrida (2089,2 mlrd. so'm), Samarqand (184,0 mlrd. so'm), Urgut (140,7 mlrd. so'm) va Ishtixon (65,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil II-chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.




Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, sanoatda respondentlarning 20,3 % iqtisodiy vaziyatda – qulay, 73,4 % qoniqarli hamda 6,3 % qoniqarsiz deb baholandi.




Xizmatlarda respondentlarning 20,0 % iqtisodiy vaziyatda – qulay, 78,3 % qoniqarli hamda 1,7 % qoniqarsiz deb baholandi.



Qurilishda respondentlarning 28,0 % iqtisodiy vaziyatda – qulay, 72,0 % qoniqarli deb baholandi.




Savdoda respondentlarning 33,7 % iqtisodiy vaziyatda – qulay, 63,9 % qoniqarli hamda 2,4 % qoniqarsiz deb baholandi.




Qishloq, o'mon va baliqchilik xo'jaligi respondentlarning 10,0 % iqtisodiy vaziyatda – qulay, 85,0 % hamda 5,0 % qoniqarsiz deb baholandi.

Qishloq, o'mon va baliqchilik xo'jaligi



Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini
yaqin uch oyda baholanishi, (foizda)



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi
bo'limi

Mas'ul: J.Butayev

Tel: (0371) 230-85-27